

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING BOLA TARBIYASI TO'G'RISIDAGI QARASHLARI

Zokirova Ochaxon Turdaliyevna

Rishton tuman 1-son kasb – hunar maktabi o'qituvchisi.

Pedagogikada axloqiy tarbiya muhim o'rin egallaydi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyani tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi. Axloqiy tarbiya tamoyillari - yo'l - yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar hisoblanadi. Axloqiy tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad - har tomonlama ma'naviy rivojlangan, aqliy va axloqiy barkamol mutaxassis shaxsini shakllantirishdan iborat. Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Axloqiy tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning axloqiy, ma'naviy tarbiyalanganlik istiqbollarini ko'ra bilishda yordam beradi. Inson paydo bo'libdiki, tarbiya jarayoni va tamoyillari mavjud.

Odob-axloq insonning eng buyuk va olijanob fazilatidir. Odob-axloq shunday bir noyob ne'matdirki, u har kimga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, xalq donoligida «Aql toji oltindan, oltin har kimda ham bo'lmas» - deyiladi. Insoniyat paydo bo'lgandan beri odamlar orasida yetishib chiqqan barcha olim-u fozillar, shoir-u-yozuvchilarning barchasi mukammal ilm egallash orqali o'z davrining e'tiborli kishilari darajasiga ko'tarilganlar. Abu Raybon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy, Abdulla Avioniy va boshqalar va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning barcha sohalarida buyuk kashfiyotlar yaratganlar. Tarixan ta'lim-tarbiya maxsus inson faoliyati sifatida shakllanib borish barobarida, ta'lim-tarbiya yakunida tarbiyalanuvchining sifatlari, ya'ni ta'limiy maqsadlar ham aniqlanib bordi. Xitoyning Samarqanddagi elchisi Vey Tazing hisobotlarida: «Samarqand aholisi mohir savdogarlardir. O'g'il bola besh yoshga to'lar ekan, unga savod o'rgata boshlaydilar», - deb qayd qilingan. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da ham ta'lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgan. Unda «Tarbiya hayotning eng muhim tirgagi, tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash lozimki, u avvalo yaxshi o'qishni keyin esa yozishni o'rganishi kerak. Bu ularning eng yuksak pog'onaga ko'tarilish siri.

Farobiy ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida inson takomilida ta'lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim-tarbiya usul va uslublari haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to'g'risida», «Aql ma'nolari to'g'risida», «Ilmlarning kelib chiqishi» kabi maorifiy asarlarida olimning ijtimoiy tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan. Farobiy axloqiy tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni yetishtirishdan iborat deb biladi. Abu Nasr Farobiyning fikricha bola tarbiyasi bir maqsadga qaratilgan holda olib borilmog'i va u aqliy va axloqiy tarbiya birligidan iborat bo'lmog'i lozim degan xulosaga kelgan.

Beruniyning odob-axloqni egallash yo'llari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Olim bilim oluvchilarga qalbni yomon o'zi sezishi mumkin bo'lmagan holatlardan, behuda raqobatdan, shon-shuhratdan saqlanish zarurligini aytdi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu irsiyat, muhit, tarbiyadir. Beruniy ota-onalarning bolalari bilan birga harakat qilishlari, turli o'yinlar uyushtirishlari, ular bilan o'zaro suhbatlar o'tkazishlari maqsadga muvofiq deb maslahat beradi. Beruniy tarbiyaning maqsadi va vazifalari haqidagi, shaxsning rivojlanish to'g'risidagi fikrlarining zamirida insonparvarlik g'oyasi yotadi. U har bir ota-ona o'z farzandlariga ana shu g'oyani singdirishi zarur degan xulosaga keladi.